



## O'ZBEKISTON AHOLISINI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH STRATEGIYASI

Sh.Sherjanov

“Ma'mun universiteti” NTM o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461224>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 19<sup>th</sup> December 2022

Online: 20<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

Aholini ijtimoiy himoya qilish,  
davlat byudjeti, byudjet  
xarajatlari, ijtimoiy himoya  
yagona reyestri, ijtimoiy  
sug'urta.

### ABSTRACT

*Mazkur maqola O'zbekistonda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaldagi holat, bajarilayotgan chora-tadbirlarning mazmuni, ilmiy xulosalar va tavsiyalar keltirilgan.*

Jahonda aholini ijtimoiy himoya qilishning keng qamrovli tizimini yaratish, jumladan, bozor iqtisodiyoti rivojlanishi natijasida jamiyatda vujudga kelayotgan salbiy ijtimoiy muammolarni hal etish, ularning ta'sir doirasini kamaytirish, jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlash asosida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish muhim vazifa hisoblanadi.

So'nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar miqdorini oshirish va yanada qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish, ijtimoiy himoya dasturlarini ko'paytirish va aholini ehtiyojmand qismini kambag'allikdan olib chiqishga qaratilgan keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

– kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish maqsadida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi joriy qilindi;

– kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar soni oxirgi uch yilda to'rt barobarga oshib, 1,9 millionga yetdi;

– kam ta'minlangan oilalardagi bolalarni parvarishlash uchun to'lanadigan nafaqa qamrovi kengayib, nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi, mazkur to'lov muddati 6 oydan 12 oygacha hamda nafaqa miqdori o'rtacha 1,5 barobarga oshirildi;

– ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdorlari 3,2 baravarga oshirildi, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan 20 dan ortiq yangi instrumentlar joriy etildi. [1]

Shuningdek, yuqoridagi farmonga muvofiq Moliya vazirligi tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etilishi belgilangan va mazkur jamg'arma mablag'lari hisobidan:

a) 2022 yil 1 sentyabrdan boshlab davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha minimal



iste'mol xarajatlaridan kelib chiqib homiladorlik va tug'ish nafaqalari to'lanadi. Bunda, xodimning ish stajida 1 oygacha bo'lgan tanaffuslar mavjud bo'lsa ushbu tanaffuslardan oldingi va keyingi oylar ketma-ket ish stajini hisoblashda qo'llaniladi;

b) kelgusida davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha beriladigan nafaqalar "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali bosqichma-bosqich to'lanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu strategiya to'rt yo'nalishni qamrab olgan, ya'ni bular ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy sug'urta,

ijtimoiy yordam va bandlikka ko'maklashish hisoblanadi.

**Birinchi yo'nalish** ijtimoiy xizmatlar – oilalarning individual holatlariga qarab xizmatlar va yordam ko'rsatiladi ya'ni amalga oshiriladigan chora bu ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasiga tushirishdir. Yaqindagina faoliyati joriy etilgan mahalladagi xotin-qizlar faollari zimmasiga ijtimoiy himoya dasturlariga ehtiyojmand oilalarni yo'naltirish yuklatiladi. 2022-2023-yillar davomida ushbu xotin-qizlar faollari ehtiyojmand oilalar bilan ishlashga o'rgatilib, ularning faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bunda, xotin-qizlar faoli mahallalarda ehtiyojmand deb hisoblangan oilalarga tashrif buyurib ularning muammolarini o'rganadi.

## 1-jadval

AVVAL	HOZIR
<b>DAVLAT IJTIMOIIY XIZMATLARINI MUSTAHKAMLASH BORASIDA</b>	
Bugungi kunda, 16 ta vazirlik va idoralar tomonidan 70 ga yaqin ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi. Amaldagi tizim asosida ijtimoiy-xizmatlarni ko'rsatishda quyidagi muammolar mavjud:	Ijtimoiy xizmatlar murojaat qilish talabisiz kompleks yondashuv asosida taqdim etiladi.
Ijtimoiy xizmatlar fuqarolarning murojaatiga asosan ko'rsatiladi hamda aholi ijtimoiy xizmatlar haqida to'liq ma'lumotga ega emas	Aholining ijtimoiy himoyasini taminlashda mahalla darajasida ishlarni olib boorish mehanizimi yo'lga qo'yiladigan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi
Ijtimoiy xizmatlarning yagona hisobi yuritilmaydi	Bunda mahallada xotin qizlar faollari har bir xonadon ahvolini yakka tartibda o'rganadi va ijtimoiy xizmatlarga muhtojlarni aniqlaydi
Ijtimoiy xizmatlarning kafolatlangan chegaralari aniq belgalanmagan	Oilaning muammolaridan kelib chiqib ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi o'rganga oilaning buyurtmasini yuboradi
Ijtimoiy xizmatlar o'z vaqtida va sifatli ko'rsatilishi ustidan yagona monitoring tizimi mavjud	Ma'lumot uchun mazkur amaliyot Kanada Buyuk Britaniya, AQSh, Rossiy, Vetnam va Shvetsiyada qo'llaniladi
	Shuningdek har bir ijtimoiy xizmatning hajmi, davriyligi va kim tomonidan amalga oshirish



<p><b>Ikkinchi yo‘nalish</b>, ya‘ni ijtimoiy sug‘urta tizimini isloh qilish sohasida, shu yilning avgust oyida Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi shakllantirilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu jamg‘armaga mablag‘lar Davlat byudjetidan ajratiladi. Keyinchalik esa, Moliya vazirligining hisob-kitoblariga asosan Jamg‘armaning qo‘shimcha manbalari aniqlanadi.</p> <p>Dastlabki bosqichda, ya‘ni sentyabrdan boshlab barcha yuridik shaxslarda mehnat shartnomasi asosida va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining mehnat tizimiga kiritilgan tarzda rasmiy ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug‘ish nafaqasining bir qismi davlat tomonidan to‘lab beriladi. Nafaqaning bu qismi hozirgi vaqtda minimal iste‘mol harajatlaridan</p>	<p>standartlari ishlab chiqiladi. Yani standartlar har bir ijtimoiy xizmat qaysi davlat organi tomonidan fuqarolarning ijtimoiy holatidan kelib chiqib qanday hajm va muddatlarda amalga oshirilishini belgilab beradi.</p> <p>kelib chiqib to‘rt oyga 2 mln. so‘m miqdorida belgilanmoqda. Ish beruvchi esa faqat nafaqaning Mehnat kodeksiga muvofiq qolgan qismini to‘lab beradi. Bu o‘z navbatida, ish beruvchilarni ijtimoiy to‘lovlarning bir qismidan ozod etib, ayollarni ishga olishga rag‘batlantiradi. Norasmiy sektorda, ya‘ni mehnat shartnomasini tuzmasdan, mehnat daftarchasini yuritmasdan ishlayotgan ayollarni esa mehnat faoliyatini rasmiylashtirishga rag‘batlantiradi. Negaki, ayol norasmiy tarzda ishlasa ish beruvchi ham davlat ham unga homiladorlik va tug‘ish nafaqasini to‘lab bera olmaydi. Bosqichma-bosqich homiladorlik va tug‘ish nafaqalari ish beruvchi zimmasidan olinadi.</p>
--	---

### 2-jadval

AVVAL	HOZIR
<b>DAVLAT TOMONIDAN KO‘RSATILADIGAN IJTIMOIIY YORDAM SAMARADORLIGINI</b>	
2021 yildan boshlab aholiga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ko‘rsatish sohaga axborot texnologiyalari va raqamlashtirishni bosqichma bosqich joriy etish natijasida “Ijtimoiy himoya Yagona restiri” axborot tizimi to‘liq joriy etildi	“Ijtimoiy himoya Yagona restiri” orqali oilaning kam taminlanganligini aniqlashni raqam lashtirish ishlari davom ettiriladi: Kam taminlanganlikni aniqlash mezonlari yanada takomillashtiriladi; Vazirliklarning malumot bazalari bilan integratsiya kengaytiriladi; Onlayn ariza topshirish imkoni yaratiladi.
“Ijtimoiy himoya Yagona reyestri” axborot tizimining bir qator vazirlik va idoralarning ma‘lumotlar bazasi bilan integratsiyalashuvi natijasida ariza berish jarayonida taqdim etish uchun talab qilinadigan hujjatlar soni keskin qisqartiriladi, ariza berish jarayoni soddalashtirildi, arizani ko‘rib chiqish vaqti qisqartirildi, jarayonda inson omili	Ijtimoiy yordam oilani kambag‘allik holatidan chiqarishga qaratilganvosita sifatida foydalanish maqsadida davlat tomonidan berilayotgan kam taminlangan oilalarga bolalar nafaqalarini ijtimoiy shartnoma tuzish orqali taqdim etish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Malumot uchun: Ijtimoiy shartnoma tizimida davlat tomonidan ijtimoiy yordam olayotgan



<p style="text-align: center;">minimallashtirildi.</p> <p style="text-align: center;">Kam taminlangan, bola tarbiyalayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida 2021 yilning sentabr oyidan boshlab kam taminlangan oilalarga bolalar nafaqasi joriy etildi.</p>	<p style="text-align: center;">fuqaro malum bir ijtimoiy majburiyatni zimmasiga oladi. Mazkur amaliyot AQSh, Turkiya, Rossiya, Bolgariya, Meksika, Indoneziya va Lotin Amerika davlatlarida qo'llaniladi</p>
<p style="text-align: center;">Hozirgi kunda:</p>	<p style="text-align: center;">Dastlabki bosqichda nafaqa tayinlangan fuqarolarga farzand larining maktabdagi davomati va bog'chaga borishini taminlash hamda birlashtirilgan oilaviy poliklinikadan majburiy vaksinalarni o'z vaqtida olish kabi oddiy shartlar qo'yiladi.</p>
<p>2,0 mln. Oila bolalar nafaqasi va moddiy yordam bilan qamrab olingan</p>	
<p>Respublika bo'yicha oilalarning 22 foizi davlat ijtimoiy yordam olmoqda</p>	
<p>Ushbu maqsadlarga ajratilayotgan mablag' oxirgi 5 yilda 7 barobarga oshdi</p>	

Keyingi bosqichda, Ijtimoiy sug'urta jamg'armasining imkoniyatlaridan kelib chiqib, kasallik varaqalari (bolnichniy) asosida nafaqa to'lab berish, ish beruvchi tugatilgan hollarda ishdan bo'shatish nafaqasini to'lab berish davlat tomonidan ijtimoiy sug'urta orqali amalga oshiriladi.

**Uchinchi yo'nalish** bo'yicha, ya'ni ijtimoiy yordam sohasida kam ta'minlangan oilalarga to'lab kelinayotgan bolalar nafaqasini ijtimoiy shartnoma tuzish orqali to'lash tizimi yo'lga qo'yilishi ko'zda tutilgan. Misol uchun, boshlang'ich

bosqichda ijtimoiy majburiyat sifatida oiladagi bolalarning maktabga doimiy tarzda qatnashi belgilanadi. Nega bunday shart oilaga qo'yilmoqda? Chunki, bolalarning ta'limi uning kelajagini aniqlaydi. Ta'lim olgan bolalar kelajakda ishga joylashishda qiynalmaydi va bu degani uning kelajakdagi oilasi kambag'allik holatiga tushib qolmaydi. Yana bir ijtimoiy majburiyat sifatida oiladagi bolalarning barchasi tegishli har xil turdagi kasalliklarni oldini olishga qaratilgan vaksinalarini olishidir.

### 3-jadval

AVVAL	HOZIR
<b>IJTIMOY SUG'URTA TIZIMINI JORIY ETISH SOHASIDA</b>	
<p>Amaldagi tartibga asosan homiladorlik va tug'ish, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik (kasallik) hamda ishdan bo'shatish nafaqalari to'lovlari byudjet tashkilotlarida byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilib, xo'jalik hisobidagi korxonalarda ish beruvchilar zimmasida.</p>	<p>Fuqarolarni, homiladorlik, baxtsiz hodisa, ish o'rinlarining qisqarish va boshqa holatlarda daromadsiz qolishdan kafolatlash maqsadida ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etiladi. Ushbu jamg'arma orqali ayollarning homiladorlik hamda tug'ish nafaqasi va vaqtincha mehnat qobiliyatsizlik (бюллетень) nafaqalarda, mehnatda mayiblanganlik kompensatsiyasi va boshqa turdagi to'lovlar amalga oshiriladi.</p>
<p>Shu sababli xo'jalik hisobidagi korxonalarda quyidagi muammolar uchramoqda:</p>	<p style="text-align: center;"><b>1-bosqich</b></p> <p>Xodimlarni ijtimoiy xatarlardan himoyalash maqsadida: Xo'jalik hisobidagi korxonalarda rasmiy ishlovchi va minimal stajga (6 oy) ega bo'lgan</p>



	ayollarga minimal istemol xarajatlari (MIX 500 ming so'm) dan kelib chiqib homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanadi ( bir ayol uchun 2 mln so'm). 2022 yilda 200 mlrd so'm ajratiladi.
<p><b>Homiladorlik nafaqasi bo'yicha:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ayollarni ishga olishda cheklovlar</li> <li>- ayollarni rasmiylashtirmasdan ishlatish</li> <li>- homilador ayollarni majburiy tarzda ishdan bo'shatish</li> </ul>	<p><b>2- bosqich</b></p> <p>2024 yildan xo'jalik hisobidagi korxonalarda rasmiy ishlovchi ayollarga ish staji va o'rtacha ish haqi hisobida homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanadi Natijada ish beruvchi zimmasidan ushbu harajatlar to'liq olib tashlanadi.</p>
<p><b>Kasallik varaqasi bo'yicha:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ayrim ish beruvchilar tomonidan kasallik tufayli ishga chiqmagan xodimlarga nisbatan e'tiroz bildirish holatlari mavjud</li> <li>- yosh farzandli ayollarni ishga olmaslik</li> </ul>	<p>2024-2026 yillardan boshlab majburiy ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tomonidan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-vaqtincha mehnat qobilyatini yo'qotganlik nafaqasi</li> <li>-ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalar</li> <li>-ishdan boshatish nafaqasi</li> <li>-ish joyi kasb kasalliklari oqibatidagi nogironlik nafaqalarini ham qamrab olish choralari ko'rsatiladi.</li> </ul>
<p><b>Ishdan bo'shatish nafaqasi bo'yicha:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ayrim hollarda bankrotlik sababli tugatilayotgan korxonalar ushbu nafaqani ishini yo'qotgan hodimlarga to'lay olmasligi mumkin</li> <li>- ish o'rinlari qisqartirilganda xodim daromadsiz qolishi mumkin</li> </ul>	<p>Bunday amaliyot dunyoning deyarli barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida qo'llaniladi, jumladan Janubiy koreya, Germaniya, Islandiya, qozog'iston, Armaniston , Xitoy, Belarus, Rossiyada.</p>

**To'rtinchi yo'nalish,** ya'ni bandlikka ko'maklashish sohasida, asosiy maqsad aholini doimiy daromad manbai bilan ta'minlashga qaratiladi. Hozirgi kunda, mehnat organlariga murojaat qilgan ayrim shaxslar haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilinadi. Ammo bu choraning kamchiligi shundaki, u vaqtinchalik chora, va aniq muddat o'tganidan so'ng jamoat ishlarida qatnashayotgan shaxs yana ishsiz

bo'lib qolaveradi. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun, kasb-hunarga o'qitish ishlari kengaytiriladi. Ya'ni ishsiz shaxs ma'lum bir kasb egasi bo'lsa u ishga joylashishi osonlashtiriladi. Ishga joylashganidan so'ng bu odamning muhtojligi bartaraf etiladi va bunday yondashuv vaqtincha emas balki uzoq muddatga qaratilgandir.

#### 4-jadval

<b>AVVAL</b>	<b>HOZIR</b>
--------------	--------------



<b>DAVLAT IJTIMOY XIZMATLARINI MUSTAHKAMLASH BORASIDA</b>	
Bugungi kunda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligiga ko'maklashish dasturlari quyidagi manbalar hisobidan amalga oshirilmoqda:	Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan bandlikka ko'maklashish dasturlari bo'yicha samaradorlik indikatorlari ishlab chiqiladi.
Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi Jamoat ishlari jamg'armasi "Sahovat va ko'mak", "Ayollar daftari" jamg'armasi Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab quvatlash jamg'armasi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvattlash jamg'armasi Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi	Mazkur indikatorlar tahlili asosida, aholi bandligini taminlashda natija dorligi yaxshi bo'lgan dasturlar va instrumentlar mablag'lar qayta taqsimlanadiva yo'naltiriladi Dasturlar tizimli va muntazam ravishda monitoring qilib boriladi
Bunda quyidagi instrumentlar qo'llanilmoqda: Kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish Tadbirkorlikka jalb etish, o'zini o'zi mustaqil ravishda band qilishni rivojlantirishga doir faoliyatni tashkil etish Oilaviy tadbirkorlikni, hunarmandchilikni tomorqa xo'jaliklari, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishlarni, kasanachilikni rivojlantirish Zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish Ishsiz shaxslarni jamoat ishlariga jalb qilish	Natijada: davlat resurslari eng samarali va natijadorligi baland bo'lgan bandlikka ko'maklashish dasturlariga yo'naltiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, Strategiyaning asosiy maqsadi ijtimoiy himoya sohasidagi barcha instrumentlarning samaradorligini oshirish. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, aholiga ko'rsatilayotgan ko'makni yanada kuchaytirishdir. Ushbu Farmonning qabul qilinishi yana bir bor O'zbekiston Respublikasida inson qadri va xalq manfaati eng muhim siyosatligini ko'rsatmoqda. Bunda, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasi esa alohida

ahamiyatga egaligi va davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligi aniq belgilanmoqda. Strategiya doirasida davlatning ijtimoiy himoya sohasidagi o'rta va uzoq muddatli maqsadlari va rejaları aniqlashtirilgan. Bu esa o'z navbatida, kelajakda ijtimoiy himoya sohasini yanada rivojlantirish uchun xalqaro tashkilotlar va institutlar bilan hamkorlik qilish, ularning texnik va ekspert ko'magini bu sohaga jalb qilishga ham imkon yaratib beradi.

## References:



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni
2. Bakberganovich S. A. Ways to Increase the Efficiency of Financing Higher Education Institutions //Journal of Marketing and Emerging Economics. – 2021. – T. 1. – №. 7. – С. 49-56.
3. Sherov, A. B., & Ruzmetova, G. N. A. (2022). O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uni moliyalashtirishning dolzarb masalalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 264-270.
4. Кучкаров, Ш., & Шеров, А. Б. (2022). Семейное предпринимательство и его эффективность. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(1), 154-157.
5. Шеров, А. Б., & Атабаева, З. (2022). Механизм эффективного налогообложения предпринимательской деятельности. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 8, 72-76.
6. Bakberganovich, S. A. (2022). Foreign experience of increasing local budget income. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 436-438.
7. Шеров Алишер Бакберганович, & Бекчанова Азиза Марат қизи. (2022). Пути улучшения социальной защиты населения. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 8, 89-92.